INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

UO‘K 343.985:159.9

TERGOV JARAYONIDA XOTIRA VA TASAVVURNING KOGNITIV-PSIXOLOGIK ASOSLARI VA QAYTA ESGA TUSHIRISH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGI

Saatbaeva Azada Bayrambaevna
Qoraqalpoq qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti,
yurisprudensiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi, Nukus O‘zbekiston,
tel:(94)286.81.06. e-mail: azadasaatbaeva708@gmail.com

Annotatsiya. Tergov jarayonida xotira va tasavvurning kognitiv-psixologik mexanizmlari ilmiy yondashuv asosida tadqiq etilgan. Xotiraning tuzilishi, turlari va qayta esga tushirish qonuniyatlari, shuningdek, ularga ta’sir etuvchi kognitiv va emotsional omillar tahlil qilindi. Tasavvur jarayonining qabul qilish, xotira va fikrlash bilan o‘zaro bog‘liqligi ochib berildi hamda uning voqealarni qayta tiklashdagi funksional ahamiyati asoslandi. Tadqiqot jarayonida so‘roq paytida axborot ishonchliligiga ta’sir etuvchi omillar, jumladan stress holati, diqqatning barqarorligi va tashqi ta’sirlar o‘rganildi. Qayta esga tushirishni faollashtirishda qo‘llaniladigan zamonaviy kognitiv usullar, xususan kognitiv intervyu, erkin eslash va assotsiativ yondashuvlarning samaradorligi baholandi.

Olingan natijalar tergov amaliyotida guvoh va jabrlanuvchilardan olinadigan ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari so‘roq jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va kognitiv mexanizmlardan maqsadli foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kalit so‘zlar: xotira, tasavvur, kognitiv jarayonlar, qayta esga tushirish, kognitiv intervyu, so‘roq jarayoni, psixologik omillar, ma’lumot ishonchliligi

Аннотация. В ходе расследования когнитивно - психологические механизмы памяти и воображения были исследованы на основе научного подхода. Проанализированы структура, типы и закономерности воспроизведения памяти, а также влияющие на них когнитивные и эмоциональные факторы. Раскрыта взаимосвязь процесса воображения с восприятием, памятью и мышлением, а также обосновано его функциональное значение в воспроизведении событий. В ходе исследования были изучены факторы, влияющие на достоверность информации во время опроса, включая стрессовое состояние, стабильность внимания и внешние воздействия. Оценена эффективность современных когнитивных методов, применяемых для активизации воспроизведения, в частности, когнитивного интервью, свободного воспроизведения и ассоциативного подхода. Полученные результаты служат повышению точности и достоверности информации, получаемой от свидетелей и потерпевших в следственной практике. Результаты исследования расширяют возможности организации процесса опроса на научной основе и целенаправленного использования когнитивных механизмов.

Ключевые слова: память, воображение, когнитивные процессы, воспроизведение, когнитивное интервью, процесс опроса, психологические факторы, достоверность информации

Abstract. This study investigates the cognitive-psychological mechanisms of memory and imagination from a scientific perspective. It analyzes the structure, types, and patterns of memory recall, as well as the cognitive and emotional factors that influence them. The paper reveals the relationship between imagination and perception, memory, and thinking, and substantiates its functional significance in the reconstruction of events. The research also examines factors affecting the reliability of information obtained during questioning, including stress, attention stability, and external influences. The effectiveness of modern cognitive methods used to facilitate recall—specifically,

cognitive interviews, free recall, and associative approaches—is evaluated. The findings aim to enhance the accuracy and reliability of information obtained from witnesses and victims in investigative practice. The results of the study expand the possibilities for organizing the interrogation process on a scientific basis and for the targeted use of cognitive mechanisms.

Keywords: memory, imagination, cognitive processes, recall, cognitive interview, interrogation process, psychological factors, information credibility

Kirish adabiyotlar sharhi. Tergov jarayonida xotira va tasavvurning kognitiv mexanizmlarini tadqiq etish zamonaviy yuridik-psixologik amaliyot uchun dolzarb bo‘lib, ushbu muammo ilmiy adabiyotlarda ma’lum darajada o‘rganilganiga qaramasdan, qayta esga tushirish jarayonlarini samarali boshqarish masalalari yetarlicha tizimlashtirilmagan; mazkur tadqiqotning obyekti inson xotirasi va tasavvur jarayonlari, predmeti esa ularning tergov sharoitida namoyon bo‘lish qonuniyatlari hisoblanadi, maqsadi - kognitiv mexanizmlarni ilmiy asosda tahlil qilish va qayta esga tushirish samaradorligini oshirish usullarini ishlab chiqish, vazifalari - xotira turlari va tasavvurning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash hamda so‘roq jarayonida ulardan foydalanish imkoniyatlarini baholashdan iborat bo‘lib, ishning ilmiy yangiligi kognitiv jarayonlarni kompleks yondashuvda o‘rganishda namoyon bo‘ladi, amaliy ahamiyati esa tergov amaliyotida olinadigan ma’lumotlarning ishonchliligi va aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Materiallar va usullar. Tadqiqot eksperimental-psixologik sharoitda o‘tkazildi. Obyekt sifatida xotira, tasavvur va qayta esga tushirish kognitiv jarayonlari tanlandi. Eksperiment, kuzatuv va psixologik test usullari qo‘llanildi. Ma’lumotlar stimul materiallar orqali o‘lchanib, shkalalar asosida qayd etildi. Statistik tahlilda o‘rtacha qiymat va korrelyatsiya usullari qo‘llanildi.

Xotira – bu tajribamizga aloqador har qanday ma`lumotni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bilan bog`liq murakkab jarayondir. Xotira har qanday tajribamizga aloqador ma`lumotlarning ongimizdagi aksidir. Inson xotirasining yaxshi bo`lishi, ya`ni hiskechinmalarimiz, ko`rgan-kechirganlarimizning mazmuni to`laroq miyamizda saqlanishi quyidagi omillarga bog`liq: 1) esda saqlab qolish bilan bog`liq harakatlarning yakunlanganlik darajasiga; 2) shaxsning o`zi shug`ullanayotgan ishga nechog`lik qiziqish bildirayotganligi va shu ishga moyilligiga; 3) shaxsning bevosita faoliyat mazmuni va ahamiyatiga munosabatining qandayligiga; 4) shaxsning ayni paytdagi kayfiyatiga; 5) irodaviy kuchi va intilishlariga. Xotiraning samaradorligi eslab qolishning ko`lami va tezligi, esda saqlashning davomiyligi, esga tushirishning aniqligi bilan bog`lanadi. Demak, odamlar ham aynan shu sifatlarga ko`ra ham farqlanadilar:

1) materialni tezda eslab qoladiganlar;

2) materialni uzoq vaqt esda saqlaydiganlar;

3) istagan paytda osonlik bilan esga tushiradiganlar. Masalan, ayrim odamlar ko`rgan narsalarini juda yaxshi eslab qoladi, demak, ularning xotirasi ko`rgazmali-obrazli bo`lib, ko`zi bilan ko`rmaguncha, narsaning mohiyatini tushunmaydi ham. Boshqalar esa o`zicha fikrlab, nomini aytib, mavhum tarzda tasavvur qilmaguncha, eslab qolishi qiyin bo`ladi. Bundaylar so`z-mantiqiy xotira tipi vakillaridar. Yana bir tipli odamlar bevosita his qilgan, ―yuragidan‖ o`tkazgan, unda biror yorqin emotsional obraz qoldirolgan narsalarni yaxshi eslab qoladilar, bu – emotsional xotiradir. Lekin yana bir xotira egalari borki, ularni fenomenal xotira sohiblari deb atashadi. Ma`lumotni xotiradan chaqirib olish omillariga quyidagilar kiradi: Ma`mulotning anglanganligi.

Natijalar. Tadqiqot jarayonida xotira, tasavvur va qayta esga tushirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha aniq miqdoriy ma’lumotlar olindi. Natijalar jadval va grafiklar orqali ifodalandi, ular asosida eksperiment guruhida esga tushirish aniqligi va tezligi nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Biz o`zimiz to`la anglagan, tushungan narsalarni osonroq esga tushiramiz. Masalan, alfavitni juda oson esga tushiramiz, yoki 1, 2, 3, 4 va hakozo tartibli sonlarni bir ko`rgandan so`ng u milliongacha bo`lsa ham esga tushirishimiz sirayam qiyin emas. Lekin shu sonlardan bor yo`g`i 7-8 tasini teskari yoki aralash tartibda yozilgan bo`lsa, ularni esga tushirish ancha mushkul bo`ladi. Kutilmagan ma`lumot. [1, 2, 3, 4]. Kutilmaganda paydo bo`lgan yangi va yaxshi ma`lumot ham yaxshi

esga tushadi. Masalan, sonlar qatorida berilgan bitta harf, yoki aksincha, harflar orasidagi bitta son, uzun jumlalar orasida paydo bo`lgan qisqa jumla esga tezroq va aniqroq tushadi. Ma`lumotning mazmun yoki shakl jihatdan bir-biriga yaqinligi. Masalan, agar ko`plab bir-biriga bog`liq bo`lmagan so`zlar orasida ―erkak‖ va ―ayol‖ so`zlari paydo bo`lgan bo`lsa, bittasining esga tushirilishi ikkinchisining ham esda tiklanishiga sabab bo`ladi. Esda saqlash vaqti bilan esga tushirish vaqti o`rtasidagi farq. Odamda berilgan ma`lumotni idrok qilish va shu orqali esda saqlash vaqti qanchalik ko`p bo`lsa, esga tushirish ham osonroq bo`ladi. Shuning uchun ham uzoq muddatli xotirada saqlanadigan ma`lumot uzoq vaqt mobaynida, ko`pincha bir necha marta qaytarib beriladi, qisqa muddatlida esa bir marta, qisqa fursatda beriladi va shu narsa esga tushirish kerak bo`lganda, tiklanmaydi. Shaxsning o`zi o`ylab topib, o`zi bevosita bajargan ishlari juda oson esga tushadi. Bu hodisa psixologiyada generatsiya samarasi deb ataladi. Shu o`rinda xotiraning sakkiz qonunini eslab qo`yishni maqsadga muvofiq sanaladi. Kishi uchun yaqqol hayajonli reaksiya vujudga keltiruvchi narsalarongda chuqur iz qoldirib, puxta va uzoq yodda saqlanadi. Samarali xotira kishining iroda sifatlariga ham bog`liqdir. Samarali xotira kishining umumiy madaniyatiga, uning aqliy saviyasiga, bilimiga, uquviga, fikrlash qobiliyatiga, ko`nikma va odatlariga ham bog`liqdir. [1, 2, 3, 4].

Anglanganlik qonuni — axborot qanchalik ongli va tushunilib qabul qilinsa, uni eslab qolish va qayta tiklash shunchalik samarali bo‘ladi; qiziқish qonuni — insonning ichki qiziqishi yuqori bo‘lgan ma’lumotlar xotirada barqaror saqlanadi; ilgarigi bilimlar qonuni — yangi axborot mavjud bilimlar bazasi bilan bog‘langanda tez va mustahkam o‘zlashtiriladi; eslab qolishga tayyorlik qonuni — shaxsning psixik va kognitiv tayyorgarlik holati eslab qolish samaradorligini belgilaydi; assotsiatsiyalar qonuni — yangi ma’lumot mavjud tasavvur va tushunchalar bilan bog‘langanda xotirada mustahkam iz qoldiradi; birin-ketinlik qonuni — axborotlar mantiqiy ketma-ketlikda taqdim etilganda ular yaxshiroq esda saqlanadi; kuchli ta’sirotlar qonuni — emotsional jihatdan kuchli ta’sir qilgan axborot uzoq muddat xotirada saqlanadi; tormozlanish qonuni — bir-biriga o‘xshash yoki yangi axborotlar avvalgisini esga tushirish jarayonini susaytirishi yoki to‘sib qo‘yishi mumkin. [1, 2, 3, 4].

Mantiqiylik yoki anganganlik nuqtai nazaridan xotirada ma`lumotlarni saqlashga qaratilgan uslub va vositalar majmui psixologiyada mnemonika yoki mnemotexnika deb yuritiladi. Psixologiyada mnemotexnik usullarning eng keng tarqalgani – bu tayanch so`zlarni ajratish vositasida eslab qolishdir. Ikkinchi – qadimgi rimlik voizlar hech qachon o`z nutqlarida qog`ozdan – yozuvdan foydalanmaganlar. Bunday mnemotexnik usulni amerikaliklar loci metodi deb atashadi. Uchinchi keng tarqalgan usul – bu eslab qolinishi kerak bo`lgan narsalarni ma`no jihatdan guruhlarga bo`lib turib eslab qolish. [1, 2, 3, 4].

Tafakkur — insonning muammoli holatlarda nostandart masalalarni tahlil qilish va yechim topishga qaratilgan bilish jarayoni bo‘lib, uning turlari (mantiqiy, ijodiy va amaliy) jinoyatni ochishda topqirlikni shakllantiradi, tergov harakatlarida esa sezgirlik (intuitsiya) muhim kognitiv-psixologik omil sifatida qaror qabul qilish va dalillarni tezkor tahlil qilish samaradorligini oshiradi.

Zamonaviy psixologiyada tafakkurning 3 turi farqlanadi:

1) tashqi harakat tafakkuri;
2) ichki obrazli tafakkur;
3) mavhum tafakkur.

Tashqi (predmetli) tafakkur kishining amaliy hayotida namoyon bo`ladi. U rivojlanishning barcha bosqichlarida yo`ldosh bo`ladi, kishi o;`z faoliyati ob`ektlarini, xulqu-atvorini analiz va sintes qilib, o`sib ulg`ayib boradi. Suhbatdoshga murojaat, taqlid qilish, hatti-harakatlarini ko`rsatish yoki ular haqida gapirish hamma vaqt ko`rgazmali garakat tafakkuri bilan bog`liq. Buturning rivojlanishi amaliyotchi yuristning harakat yoki operatorlik faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Ko`rgazmali obrazli tafakkur kishi ilgari idrok etgan ko`rgazmali obrazlar orqali fikllash jarayonidan iborat. Misol uchun, tergov harakatlari o`tkazish chog`ida shahardagi mo`ljalga yetib borish yo`nalishni tashqi obrazlar yordamida tasavvur etadi. Obrazli tafakkur jinoyat ishi bo`yicha gumonlanayotgan shaxslarning bundan keyingi xulq-atvorlarini chamalashga yordam beradi, analitik hujjatlarni, sharhlarni, ilmiy ma`ruzalarni tayyorlashni yengillashtiradi. Rivojlangan obrazli tafakkur amaliyotchi

xuquqshunosning kommunikativ, boshqaruv va bilish faoliyatidagi masalalarni hal etishga ko`maklashadi. [1, 2, 3, 4].

Mavhum tafakkur fikriy operatsiyalarni bajarish uchun abstrakt tushunchalar, nazariy bilimllar qo`llanilishi zarur bo`lgan faoliyat sohalarida yaqqol namoyon bo`ladi. Bunday tafakkur asosan mantiqiy mulohazalar asosida bajariladi. Bu tafakkur huquqshunosga ijtimoiy fanlarning murakkab kategoriyalarini tushunish hamda muomalada ularni qo`llay bilishga yordam beradi. [1, 2, 3, 4].

Masalalarni hal etish jarayonining o`ziga xos xususiyati shundaki, unda intuitsiya (tasodifiy bilish) ishtirok etadi. Intuitsiyani odatda idrokning maxsus metodi sifatida talqin qiladilar, bunda izlanayotgan xulosa tayyoricha mavjudday tuyuladi. Intuitsiya yordamida inson haqiqatni mantiqiy tanlash va isbotlashlarni qo`llamasdan, bevosita taxmin qilish orqali anglab oladi. [1, 2, 3, 4].

Tahlil. Natijalarning ilmiy tahlili amalga oshirilib, ular boshqa tadqiqotlar bilan taqqoslandi hamda olingan farq va qonuniyatlarga ilmiy izoh va tushuntirishlar berildi. Intuitiv qarorlar qabul qilishning samaradorligi ko`pgina omillarga bog`liq. Bu o`rinda sudya yoki tergovchining tajribasi, bilimlari, qobiliyati, ko`nikmalari juda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ularning psixologik holatlari katta rol o`ynaydi. Birdamlik, ko`tarinki kayfiyat holati intuitiv qarorlarning hosil bo`lishiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi, aksincha, hadiksirash, tushkun kayfiya, ishonchsizlik intuitsiyani xom xayol darajasiga tushirib qo`yadi. Intuitsiya ayni chog`da insonning indvidual-psixologik xususiyatlariga ham bog`liqdir: ayrim kishilar ko`p xollarda dalillar mantiqi asosida ish ko`rishga moyil bo`lsalar, boshqa kishilar intuitsiyaga asoslanib, ishga kirishadilar. Biroq hamma xolda ham tajriba poydevor bo`lib qolaveradi.

Xulosa. Tadqiqot kognitiv-psixologik nuqtayi nazardan xotira va qayta esga tushirish jarayonlari diqqat, motivatsiya va assotsiativ aloqalar bilan funksional bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar tergov sharoitida guvohlar xotirasi barqarorligi va aniqligini oshirishda psixologik ta’sir usullarini qo‘llashning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi hamda kognitiv jarayonlarni optimallashtirishga doir tavsiyalarni asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev Yu. va boshqalar. Xuquqiy psixologiya muqaddimasi. Farg‘ona.1998. O‘quv qo‘llanma. -130 b. —Ibrat nashr.
2. Arifxodjaeva I. Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyati psixologiyasi. O`quv qo`llanma.Toshkent 2008 yil. 432 bet.
3. Axverdova O.A., Voloskova N.N., Bolotova O.V. Jinoiy psixologiya. Qo`llanma. Stavropol, 2009 yil
4. Norboyev A.N., Usmonova A.A. Yuridik psixologiya. O`quv qo`llanma. T.2006.-67
5. Chutboyev M.R. va boshqalar. Bola savdosi jinoyati bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish masalalari yuzasidan metodik tavsiyalar. T. —Yurist-mediya markazi, 2019.-60 b.